




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va kelgusida rag'batlantirish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida, joriy yilning yanvar–dekabrda 38,2 mingdan ortiq kichik biznes (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) sub'yektlari tashkil etildi yoki 2016 yilning shu davriga nisbatan 122,0 foizga ko'paydi. Mazkur kichik biznes sub'yektlarining eng ko'p qismi sanoat tarmog'ida (27%), savdo sohasida (21%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (13%) va qurilishda tarmog'ida (10%) tashkil etilgan.

2017 yil yanvar–dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2017 yilning yanvar–dekabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`yektlari tomonidan:

– sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 57 095,6 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 39,6 foizi) yoki 2016 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o`shish sur`ati 102,1 foizni tashkil etdi;



– 19 407,1 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 32,0 foizi) o`zlashtirildi yoki 2016 yilning yanvar–dekabriga nisbatan 95,5 foizni tashkil etdi;



– 22 173,8 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 65,1 foizi) bajarildi yoki 2016 yilning yanvar–dekabriga nisbatan o`shish sur`ati 103,2 foizni tashkil etdi;



– 68 161,9 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (jami xizmatlar hajmining 58,4 foizi), 2016 yilning yanvar–dekabriga nisbatan 99,9 foizni tashkil etdi;



– chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmining 88,4 foizi yoki 93 508,0 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 101,1 foiz) shakllantirildi;

– 3 763,5 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 27,0 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksporti amalga oshirildi, bu esa 2016 yilga nisbatan 624,4 mln. AQSh dollari yoki 19,9 foizga ko'p;



Tovar va xizmatlar eksport qiluvchi kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining ko'payishi, eksport hajmining oshishiga imkoniyat yaratdi. 2016 yil bilan solishtirganda ularning soni 1310 taga ko'payib, asosan sanoat (733), savdo (329), qishloq xo'jaligi (162) korxonalaridir.

– avtomobil transporti yuk aylanmasining 5,3 foizga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 77,9 foizi);


– yo'lovchi aylanmasining esa 3,1 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 94,8 foizi) ko'payishi ta'minlandi;



– 10 587,7 ming nafar kishining bandligi ta'minlandi (jami iqtisodiyotda band bo'lganlarning 78,3 foizi) (o'sish sur'ati 1,8 foiz);

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi eksportda – 27,0 foizni (2016 yilning yanvar–dekabrda 26,0 foiz), sanoatda – 39,6 foizni (45,3 foiz), xizmatlarda – 58,4 foizni (61,4 foiz), qurilishda – 65,1 foizni (66,9 foiz) va bandlikda – 78,3 foizni (78,2 foiz) tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmga nisbatan foizda)



Hududlar bo`yicha sanoat tarmog`ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eng ko`p ulushini Toshkent shahri (71,3 foiz), Namangan (68,4 foiz) va Jizzax (61,3 foiz) viloyatlari tashkil etdi.

**2017 yil yanvar– dekabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning
hududlar bo`yicha ulushi
(foizda)**

	Sanoat	Xizmatlar	Qurilish	Bandlik
O'zbekiston Respublikasi	39,6	58,4	65,1	78,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	18,0	61,3	79,2	75,2
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	34,4	73,7	94,3	84,5
Buxoro	43,4	74,9	67,8	78,5
Jizzax	61,3	74,2	91,3	82,0
Qashqadaryo	23,1	71,9	76,8	80,0
Navoiy	18,8	67,3	75,4	60,3
Namangan	68,4	73,7	93,9	83,4
Samarqand	55,5	76,5	92,3	84,5
Surxondaryo	45,8	76,3	79,4	81,1
Sirdaryo	44,9	66,4	91,4	79,5
Toshkent	29,6	76,2	79,2	77,0
Farg'ona	41,4	75,9	89,0	80,5
Xorazm	40,6	71,4	87,2	82,9
Toshkent shahri	71,3	51,1	66,8	56,8


Xizmatlar sohasining yuqori ulushini Samarqand (76,5 foiz), Surxondaryo (76,3 foiz), Toshkent (76,2 foiz), Farg'ona (75,9 foiz), Buxoro (74,9 foiz), Jizzax (74,2 foiz) va Andijon (76,2 foiz) viloyatlari tashkil qiladi.

Qurilishda Andijon (94,3 foiz), Namangan (93,9 foiz) va Samarqand (76,5 foiz) viloyatlari tashkil qiladi.

Bandlikda esa, Andijon va Samarqand viloyatlari (84,5 foiz), Namangan (83,4 foiz), Xorazm (82,9 foiz) viloyatlari tashkil qiladi.

2017 yilning yanvar–dekabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 53,3 foizni tashkil qildi (2016 yilning yanvar–dekabrda 56,2 foiz).

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududlar bo'yicha YaIMdagi ulushi




Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi eng ko'p Jizzax (74,2 foiz), Surxondaryo (72,1 foiz), Andijon (72,0 foiz), Namangan (70,6 foiz) viloyatlarida tashkil etdi. Navoiy viloyatida ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda va 40,3 foizni tashkil qiladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2017 yil IV chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 900 dan ortiq respondent ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, sanoat tarmog'idagi respondentlarning 24,9 foizi iqtisodiy vaziyatni – qulay va 59,7 foizi esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda qurilishda – 22,1 foiz va 53,5 foiz, savdo sohasida – 25,6 foiz va 59,8 foiz, xizmatlar sohasida – 26,7 foiz va 59,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa – 24,8 foiz va 59,0 foizni tashkil etganligini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashadiganlar sanoatda – 15,4 foiz, qurilishda – 24,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 16,2 foiz, savdoda – 14,6 foiz, xizmatlarda – 14,1 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2017 yil IV–chorak uchun



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin 3 oyda 68,5 foiz sanoat korxonalari, 60,3 foiz – savdo, 58,9 foiz – xizmatlar, 60,7 foiz – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida va 60,5 foiz – qurilish tarmog'ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin 3 oyda baholanishi



Kuzatuv natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi boshqarmasi**